

# HCS D

## Human capital and social development.

2025 – volume 15, issue 3

Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali.

**2025 – 15-jild, 3-son**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA****INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI****SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT****UNIVERSITETI****Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali****Journal Human capital and social development****Журнал Человеческий капитал и социальноеразвитие****Jurnali****15-jild, 3-son (iyun) 2025.****Jurnal 2021-yilda tashkil topgan.****Davriyligi: har ikki oyda**

**Davriy nashirning rasmiy nomi:** “Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish”-“Human capital and social development”-“Человеческий капитал и социальное развития” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 19.05.2021 sanada berilgan №1179 guvohnomasi bilan ro‘yhatdan o‘tgan.

**Junal:** O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023 yil 30 noyabrdagi 342/3-son qarori bilan tasdiqlangan Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) Ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yhatiga kiritilgan.

**Jurnal asoschilari:** Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla tarqqiyotini boshqarish instituti.

**Nashr etuvchi:** SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi.

**Xalqaro indeksi:** ISSN 3030-3672

**Tahririyat telefoni:** +998 (94) 283 56 78, +998 (90) 502 13 03

**Pochta manzili:** 140104, Samarqand shahar., Universitet xiyoboni, 4

**Web-sayt:** [www.hcsd.samdu.uz](http://www.hcsd.samdu.uz).

**E-mail:** [muhridinrabbimov@gmail.com](mailto:muhridinrabbimov@gmail.com)

## «INSON KAPITALI VA IJTIMOYIY RIVOJLANISH»

## «HUMAN CAPITAL AND SOCIAL DEVELOPMENT»

## «ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ»

## JURNALI

**Bosh muharrir:** t.f.d., prof. Xalmuradov Rustam Ibragimovich

**Bosh muharrir o‘rinbosari:** i.f.d., prof. Arabov Nurali Uralovich

**Kotib:** PhD, dots. Nasimov Ikrom Xusanovich

**Texnik muharrir:** assistent., Rabbimov Muxriddin Musoqul o‘g‘li

## TAHRIRIYAT KENGASHI

O‘zFA akademigi, i.f.d., prof. Abdurahmonov Qalandar Xodjayivech

O‘zFA akademigi, i.f.d., prof. G‘ulomov Saidaxror Saidaxmedovich

DSc, professor Daler Mirpochoyev (Iqtisodiyot va savdo instituti, Tojikiston)

PhD, professor Arindam Banik (Xalqaro menejment instituti, Hindiston)

PhD, professor Jiye Li (Sian Jiatong universiteti, Xitoy Xalq Respublikasi)

PhD, professor Bayong Van Li (Yongnam universiteti, Janubiy Koreya)

PhD, professor Vonyong Li (Yongnam universiteti, Janubiy Koreya)

PhD, professor Yan Patterson (Kvinslend universiteti, Avstraliya)

PhD, dots. Djurakulov Shoxrux Davronovich (SamDU)

i.f.n., dots. Yuldashev Shamsiddin Qiyomiddinovich (SamDU)

i.f.n., dots. Nizamov Axtam Numonovich (SamDU)

i.f.n., dots. Bozorov Berdimurod Ulug‘murodovich (SamDU)

i.f.n., dots. Boboqulov Bahromqul Mamatkulovich (SamDU)

i.f.n., dots. Usmonova Dilafruz Karshiyevna (SamDU)

i.f.n., dots. Alibekova Saodat Lapasovna (SamDU)

PhD, dots. Ulug‘murodova Nodira Berdimuradovna (SamDU)

PhD, dots. Sharifov Shuhrat Saidahmadovich (SamDU)

PhD, dots. Bakayev Ziyovuddin Toshbolta o‘g‘li (SamDU)

PhD, dots. Karjavova Xurshida Abdumalikovna (SamDU)

PhD, dots. Mansurova Nargiza Shamsiddinovna (“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti)

PhD, dots. Djalilov Faxriddin Azimovich (SamDU)

PhD, dots. Boltayev Burxon Sadinovich (SamDU)

PhD, dots. Maxmudova Mohinur Ravshanbekovna (SamDU)

## O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING O‘RNI

A.A.Abdurahmonov 

Samarqand iqtisodiyot va serves instituti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS

HCSD

### Correspondence

Abdurahmonov Azizbek Akram o‘g‘li  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
tayanch doktoranti

### Email:

[@azizabdurahmonov65@gmail.com](mailto:azizabdurahmonov65@gmail.com)

Tel: +998 90 212 66 88

Received: 15 March 2025

Revised: 22 March 2025

Accepted: 14 July 2025

Published: 30 July 2025

Funding source for publication:  
Samarkand State University.

**Publisher’s Note:** HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.



**Copyright:** Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed <https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/>

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning nazariy va amaliy asoslari o‘rganilgan. Xususan, mamlakatda so‘nggi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, soliq va bojxona imtiyozlari, huquqiy muhit barqarorligi, maxsus iqtisodiy zonalarning roli hamda xorijiy investorlar uchun muhim omillar tizimli tahlil qilingan. Statistika ma‘lumotlar asosida 2018–2024-yillar davomida xorijiy sarmoyalar hajmining dinamikasi, tarmoqlar kesimidagi taqsimoti va MIZlar orqali investitsiya oqimining ortib borayotgani ilmiy asosda tahlil etildi.

**Kalit so‘zlar:** xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, investitsion jozibadorlik, iqtisodiy barqarorlik, sarmoya oqimi, investitsion siyosat, xalqaro reytinglar, iqtisodiy erkinlik, tarmoqlar kesimidagi investitsiya.

### РОЛЬ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В СТИМУЛИРОВАНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация:** В данной научной статье исследуются теоретические и практические основы повышения привлекательности инвестиционной среды Республики Узбекистан в привлечении иностранных инвестиций. В частности, системно анализируются экономические реформы, проводимые в стране в последние годы, налоговые и таможенные льготы, стабильность правовой среды, роль специальных экономических зон, важные факторы для иностранных инвесторов. На основе статистических данных научно проанализирована динамика объема иностранных инвестиций, их распределение по секторам, а также увеличение потока инвестиций через СЭЗ за 2018–2024 годы.

**Ключевые слова:** иностранные инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, экономическая стабильность, потоки капитала, инвестиционная политика, международные рейтинги, экономическая свобода, инвестиции по секторам.

### THE ROLE OF FREE ECONOMIC ZONES IN PROMOTING FOREIGN INVESTMENT IN THE UZBEKISTAN ECONOMY

**Abstract:** This scientific article studies the theoretical and practical foundations of increasing the attractiveness of the investment environment in the Republic of Uzbekistan in attracting foreign investment. In particular, the economic reforms carried out in the country in recent years, tax and customs privileges, the stability of the legal environment, the role of special economic zones, and important factors for foreign investors are systematically analyzed. Based on statistical data, the dynamics of the volume of foreign investment, its distribution across sectors, and the increasing flow of investment through SEZs for 2018–2024 were scientifically analyzed.

**Keywords:** foreign investment, investment climate, investment attractiveness, economic stability, capital flows, investment policy, international ratings, economic freedom, investment across sectors.

**Kirish.**

Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish va mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning kengayib borayotgan sharoitida har bir mamlakat o'z iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlash, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishga intilmoqda. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun chet el investitsiyalari milliy iqtisodiyotga zamonaviy texnologiyalar, ilg'or boshqaruv tajribalari va yangi ish o'rinlarini olib kirish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida mamlakatning investitsion muhiti, uning jozibadorlik darajasi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Investitsion muhit – bu sarmoyadorlar uchun yaratilgan siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlar majmuasidir. Aynan ushbu muhitning qulayligi yoki xavf-xatarliligi xorijiy investorlarning mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelish qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qator ijobiy islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, mavjud imkoniyatlar to'liq ishga solinmagan. Shuning uchun ham investitsion muhitning yanada jozibadorligini oshirish, uni barqaror, shaffof va raqobatbardosh holga keltirish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

**Mavzu bo'yicha adabiyotlarni tahlili.**

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, ularning nazariy asoslari va amaliy

mexanizmlari mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilmoqda. Mamlakatimizda investitsion muhitni jozibador qilish, xorijiy kapital oqimini rag'batlantirish va sarmoya xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan izlanishlar xorijiy tajriba bilan integratsiyada yondashilmoqda.

X. Sultonov o'z tadqiqotlarida xorijiy investitsiyalarni jalb etishda normativ-huquqiy barqarorlik va institutsional ishonch muhitini yaratish zarurligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, xorijiy investorlar uchun eng muhim omillardan biri bu — iqtisodiy va huquqiy risklarning minimallashtirilganligi, hamda mulk huquqlari kafolatlanishidir. U, ayniqsa, investitsion shartnomalarning xalqaro standartlarga mos bo'lishi masalasini muhim deb hisoblaydi.

N. Xudoyberganova investitsion muhitni nafaqat iqtisodiy omillar, balki ijtimoiy-psixologik omillar bilan ham bog'laydi. U investitsiyalar oqimiga ijtimoiy barqarorlik, aholining malaka darajasi, korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligi kabi omillar kuchli ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Uning ilmiy ishlari xorijiy investitsiyalar uchun “yumshoq kuch” siyosatining ham muhimligini ko'rsatadi.

Sh. Ibragimov esa o'z izlanishlarida iqtisodiy erkin zonalarining (IEZ) xorijiy sarmoyalarni jalb qilishdagi o'rniga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, IEZlar sarmoyadorlar uchun soddalashtirilgan soliqqa tortish, bojxona imtiyozlari, erkin valyuta operatsiyalari kabi qulayliklarni taqdim etish orqali investitsion jozibadorlikni oshiradi. Shuningdek, u mazkur zonalarda infratuzilmani rivojlantirish va “bir darcha” tamoyilini to'liq joriy qilishni taklif etadi.

A. Xakimov investitsion muhitni baholashda xalqaro reyting agentliklarining o'rnini va "Doing Business" indeksidagi O'zbekiston pozitsiyasining ijobiy dinamikasiga e'tibor qaratadi. U mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar – xususan, litsenziyalash tartibining soddalashtirilishi, soliqlar soni va stavkalarining kamaytirilishi xorijiy investorlar e'tiborini tortayotganini qayd etadi. Uning tahliliga ko'ra, normativ hujjatlar barqarorligi va shaffof byurokratik muhit xorijiy kapitalning o'sishiga kuchli turtki beradi.

M. Mullaboyev esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining ahamiyatiga urg'u beradi. Uning tadqiqotlarida, DXSh modeli orqali investorlar ishonchli huquqiy asosda uzoq muddatli loyihalarga kirishishi, risklar davlat tomonidan qisman yengillashtirilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, mahalliy olimlar investitsion muhit jozibadorligini oshirishni kompleks yondashuv orqali, ya'ni iqtisodiy, huquqiy, institutsional va ijtimoiy


omillarning o'zaro bog'liqligi asosida talqin qilmoqdalar. Ularning ilmiy qarashlari xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarining O'zbekiston sharoitiga moslashuvchan variantlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur ilmiy ishning tadqiqot metodologiyasi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ta'sir qiluvchi omillarni tizimli ravishda o'rganish, ularni baholash va O'zbekistonda investitsion muhitni takomillashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga asoslangan. Tadqiqot davomida iqtisodiy tahlil, solishtirma yondashuv, empirik kuzatuvlar, statistik metodlar, ekspert baholash va SWOT-tahlil kabi usullardan kompleks foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar.**

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda O'zbekiston investitsion muhitining jozibadorlik darajasi, asosiy tarmoqlar kesimidagi sarmoya oqimi, investorlar uchun muhim omillar, shuningdek maxsus iqtisodiy zonalar orqali jalb etilgan investitsiyalarning roli statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi.



**1-rasm. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar hajmining yillik dinamikasi, (mlrd. so'm)**

Tahlil natijalariga ko'ra, 2018–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Agar 2018-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 8 trln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 14,5 trln. so'mgacha yetgan. Bu esa yetti yil davomida sarmoya hajmining deyarli 1,8 barobarga o'sganini ko'rsatadi.


Yillik kesimda qaralganda, har yili sarmoya hajmida o'rtacha 7-10% atrofida o'sish kuzatilmoqda. 2019-yilda investitsiyalar hajmi 1,1 trln. so'mga oshib, 9,1 trln. so'mni tashkil qilgan. Bu yildagi ijobiy o'zgarishlar Prezident farmonlariga muvofiq, soddalashtirilgan investitsiya rejimlari va tashqi iqtisodiy hamkorlikni faollashtirish bilan izohlanadi. 2020-yilda esa pandemiyaga qaramay, xorijiy investitsiyalar hajmi 10,2 trln. so'mga yetgani, O'zbekistonning investitsiya siyosatida barqarorlik mavjudligini anglatadi.

2021–2022-yillarda ham ijobiy dinamika davom etib, mos ravishda 11,4

va 12,5 trln. so'mlik investitsiyalar jalb qilingan. Bu davrda, ayniqsa, energetika, infratuzilma va sanoat tarmoqlariga xorijiy investorlar tomonidan katta qiziqish bildirildi. 2023-yilda esa investitsiyalar 13,8 trln. so'mga yetgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 10,4% o'sishni tashkil etadi.

Eng yuqori ko'rsatkich 2024-yilga to'g'ri keladi — 14,5 trln. so'm. Bu esa, bir tomondan, O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar sonining ko'paygani, ikkinchi tomondan, xorijiy investorlar uchun kafolatlangan imtiyozlar, yuridik barqarorlik va erkin konvertatsiya siyosati bilan bog'liq.

Bu tendensiya mamlakatning investitsion muhitining tobora jozibador bo'lib borayotganini, shuningdek, iqtisodiy siyosatning xorijiy kapitalni jalb qilishdagi natijadorligini anglatadi. Ayniqsa, yuqori texnologiyali va eksportga yo'naltirilgan loyihalarga bo'lgan e'tibor natijasida O'zbekiston mintaqaviy sarmoyadorlar uchun barqaror hamkor sifatida shakllanmoqda.



**2-rasm. Maxsus industrial zonalar orqali jalb etilgan xorijiy investitsiyalar ulushi, % da**

O'zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarni tizimli va strategik tarzda jalb etish maqsadida tashkil etilgan maxsus industrial zonalar (MIZ) faoliyati muhim mexanizm sifatida xizmat qilmoqda. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar ushbu yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan siyosatning natijadorligini tasdiqlaydi.

2018-yilda MIZlar orqali jalb etilgan xorijiy investitsiyalar umumiy xorijiy investitsiyalarning atigi 10 foizini tashkil etgan. Bu davrda MIZlar soni va infratuzilmasi hali to'liq shakllanmagan edi. Ammo 2019-yilda bu ko'rsatkich 11,5% ga, 2020-yilda esa 13% ga ko'tarilgan. Bunda, eng avvalo, MIZlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari, yuridik-huquqiy kafolatlarning yaratilishi asosiy omil bo'ldi.

2021–2022-yillarda MIZlar orqali investitsiya jalb etish sur'ati izchil oshib borgan bo'lib, bu ko'rsatkich mos ravishda 15% va 17% ni tashkil qilgan. Bu yillarda Navoiy, Jizzax, Angren kabi zonalarning faoliyati faollashdi, logistika, energetika va kimyo sanoatiga oid xorijiy loyihalar ko'paydi. Shu bilan birga, MIZlarda er egaligi bo'yicha soddalashtirilgan tartiblar, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha qulayliklar xorijiy investorlar ishonchini oshirdi.

2023-yilda MIZlar orqali investitsiyalarning ulushi 18,5% ga yetgan bo'lib, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 20% darajasini tashkil etgan. Bu holatdan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, maxsus industrial zonalar xorijiy investorlar uchun O'zbekistondagi eng jozibali infratuzilmaviy platformalardan biriga aylangan. Ularning ulushi yil sayin ortib borayotgani MIZlar orqali investitsiyalarni yo'naltirishda strategik yondashuv mavjudligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, xorijiy investorlar uchun quyidagi jihatlar MIZlar orqali sarmoya kiritishda asosiy motivatsion omillar sifatida e'tirof etiladi:


- bojxona va soliq imtiyozlarining mavjudligi;

- yer va infratuzilma obyektlariga soddalashtirilgan kirish;

- “yagona darcha” tamoyiliga asoslangan ruxsatnoma va litsenziya olish jarayonlari;

- ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilishda qulay geografik joylashuv (masalan, Farg'ona vodiysi, Jizzax, Toshkent viloyati).

Natijada, O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar hajmida MIZlar salmog'i yil sayin ortib bormoqda va bu investitsion muhitni liberallashtirishda muhim yo'nalish bo'lib qolmoqda.



**3-rasm. Investitsiyalar tarmoqlar kesimida taqsimlanishi, % da**

Jadvalda ko'rsatilgan investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti O'zbekiston iqtisodiyotida **sektorlararo ustuvorlikni** va davlat hamda xususiy kapitalning qaysi sohalarga yo'naltirilayotganini aniqlashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

**Sanoat sohasi**, kutilganidek, investitsiyalar bo'yicha **eng katta ulush** — **41%** bilan yetakchilik qilmoqda. Bu holat mamlakat sanoat salohiyatini mustahkamlashga, xomashyo asosidagi iqtisodiyotdan yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarishga o'tish strategiyasi bilan bog'liq. Xususan, avtomobilsozlik, qurilish materiallari, metallurgiya, oziq-ovqat sanoati va yengil sanoat sohasiga yo'naltirilgan xorijiy va mahalliy investitsiyalar sanoatning eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

**Energetika tarmog'i** 25% ulush bilan ikkinchi o'rinda turibdi. Bu esa mamlakatning energetik mustaqilligini ta'minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga (quyosh, shamol, gidroenergetika) sarmoya kiritish tendensiyasi bilan bog'liqdir.

**Qurilish sohasi** 12% ulush bilan uchinchi o'rinni egallagan. Bu sohadagi investitsiyalar asosan yangi turar joylar, infratuzilma obyektlari (yo'llar, ko'priklar, maktab va kasalxonalar) qurilishi bilan bog'liq. Shuningdek, turizm obyektlari, mehmonxonalar va sanoat infratuzilmasi qurilishi ham bu

tarmoqqa jalb qilingan investitsiyalar tarkibida salmoqli o'rin tutmoqda.

**Xizmatlar sohasi** 9% ulushga ega bo'lib, bu ko'rsatkich xizmatlar sohasining rivojlanish sur'atlari sanoat va qurilish sohasiga nisbatan pastroq ekanini ko'rsatmoqda. Holbuki, xizmatlar sohasi iqtisodiyotda aholi bandligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va yalpi ichki mahsulotdagi xizmatlar ulushini ko'paytirishda katta rol o'ynaydi. Bu esa xizmatlar sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarni rag'batlantirish zarurligini ko'rsatadi.

**Transport-logistika sohasining ulushi** 7% bo'lib, bu sohada amalga oshirilayotgan yo'llar, temir yo'l infratuzilmasi, aeroport va logistika markazlari kabi strategik ob'ektlarga investitsiyalar qamrab olingan. O'zbekistonning geoiqtisodiy joylashuvi (Xitoy–Yevropa o'rtasidagi transport yo'lagi) hisobga olinsa, bu tarmoq investitsiyalarni yanada ko'proq jalb qilishga loyiqdir.

**Qishloq xo'jaligi sohasi** 6% ulush bilan oxirgi o'rinda turibdi. Bu ko'rsatkich O'zbekistonning agrar davlat sifatida saqlanib qolayotganligini hisobga olganda past deb baholanishi mumkin. Bu holat zamonaviy agrotexnologiyalar, intensiv bog'dorchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni rivojlantirishda sarmoyaviy faollikni oshirish zarurligini ko'rsatadi.

1-jadval

### Xorijiy investorlar uchun muhim omillar reytingi.

Omil	O'rtacha baho (5 dan)
Soliq va boj imtiyozlari	4.8
Yer va infratuzilma tayyorligi	4.5
Mehnat resurslari mavjudligi	4.3
Valyuta konvertatsiyasi kafolati	4.1
Huquqiy barqarorlik	3.9
Raqobatbardosh ichki bozor	3.6

Jadvaldagi tahlil natijalariga ko'ra, soliq va boj imtiyozlari (4.8 ball) eng yuqori bahoga ega bo'lib, bu ko'rsatkich O'zbekistonda xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan fiskal yengilliklarning sarmoya kiritishdagi asosiy omil sifatida tan olinayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, soliq stavkalarining maqbulligi, bojxona bojlaridan ozod qilish yoki kechiktirilgan to'lovlar kabi mexanizmlar xorijiy investorlar uchun moliyaviy xavf va xarajatlarni kamaytiradi.

Keyingi o'rinda yer resurslari va infratuzilma tayyorligi (4.5 ball) yuqori baholangan. Bu esa sanoat zonalar, logistika markazlari va infratuzilma loyihalarining investitsiyalar uchun tayyor holatda bo'lishi muhim ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar (FEZ) va maxsus industrial zonalar (MIZ) xorijiy sarmoya uchun strategik maydon hisoblanadi.

Mehnat resurslari mavjudligi (4.3 ball) esa xalqaro investorlar uchun ishchi kuchining sifati va miqdoriga e'tibor qaratayotganini bildiradi. Bu O'zbekistonning yosh va ishga layoqatli aholisi borligini, lekin ularni malakali va moslashtirilgan kadr sifatida tayyorlashga ehtiyoj yuqoriligini ko'rsatadi.

Valyuta konvertatsiyasi kafolati (4.1 ball) muhim moliyaviy xavfsizlik omili sifatida qayd etilgan. So'nggi yillarda O'zbekistonda valyuta bozorining erkinlashtirilishi investorlar uchun valyuta xatarlarini kamaytirish bilan birga, kapitalni olib chiqish imkoniyatlarini ham ta'minlayapti.

Huquqiy barqarorlik (3.9 ball) va raqobatbardosh ichki bozor (3.6 ball) esa nisbatan pastroq baholangan. Bu O'zbekistonda investitsiya qonunchiligining takomillashuvi va iqtisodiy muhitning ochiqligi yo'nalishida

hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, shartnomalarning ijrosi, sud tizimi samaradorligi va investor huquqlarining mustahkam kafolatlari xorijiy sarmoyadorlar uchun eng muhim ishonch elementlaridan biri hisoblanadi.

### **Xulosa.**

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha so'nggi yillarda salmoqli natijalarga erishilgan. 2018–2024-yillar davomida xorijiy sarmoya hajmining deyarli ikki baravarga oshgani mamlakatda investitsion muhitning barqaror va jozibador shakllanayotganini anglatadi. Ayniqsa, maxsus industrial zonalar orqali sarmoya jalb qilishning ortib borayotgan ulushi, investitsion infratuzilmaning takomillashuvi, soliq va bojxona imtiyozlarining ta'siri amaliy natijalar bilan isbotlanmoqda.

Tarmoqlar kesimidagi investitsiyalar taqsimoti ham iqtisodiyotda muvozanatli rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatmoqda. Sanoat va energetika eng ko'p sarmoya jalb qilinayotgan sohalar bo'lib, bu mamlakatning texnologik yangilanishi va eksport salohiyatini oshirishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasi va qishloq xo'jaligida investitsion faollikni kuchaytirish istiqboldagi asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Investorlar tomonidan eng muhim deb baholangan omillar – soliq va boj imtiyozlari, yer va infratuzilma tayyorligi, mehnat resurslari mavjudligi – O'zbekiston hukumati tomonidan tanlab olingan strategik yo'nalishlarning to'g'riligini tasdiqlaydi. Biroq, huquqiy barqarorlik, ichki bozor raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek valyuta tartibotining yanada

liberallashtirilishi bo'yicha qo'shimcha choralar talab etiladi.

Shunday qilib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion muhitning jozibadorligini ta'minlash uchun davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada

chuqurlashtirish, institutsional ishonchni mustahkamlash, zamonaviy moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro normativ-huquqiy standartlarga yaqinlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sultonov X. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda huquqiy muhitning o'rni. – T.: Iqtisodiyot, 2020.
2. Xudoyberganova N. Investitsion muhitni baholashda ijtimoiy omillarning roli. – T.: Fan, 2021.
3. Ibragimov Sh. Erkin iqtisodiy zonalarning xorijiy sarmoyalarni jalb etishdagi ahamiyati. – T.: Ilm Ziyos, 2020.
4. Xakimov A. Doing Business indeksining O'zbekistondagi investitsion muhitga ta'siri. – Iqtisodiy tahlil, 2022, №3.
5. Mullaboyev M. Davlat-xususiy sheriklik modeli va uning xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi roli. – Samarqand, 2023.
6. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari. – [www.invest.gov.uz](http://www.invest.gov.uz)
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. – [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
8. UNCTAD World Investment Report, 2023. – [www.unctad.org](http://www.unctad.org)

**CONTENTS**

<b>1</b>	<b>SAMARQAND VILOYATIDA INVESTITSION - INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH HOLATI VA INVESTITSİYALARNING TARKIBIY XUSUSIYATLARI</b>	
	Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Axrorov Abbos Aslamjon o'g'li	<b>4-13</b>
<b>2</b>	<b>“YASHIRIN IQTISODIYOT”GA METODOLOGIK YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH</b>	
	Abduvohidov Najmiddin Rahmatullaevich	<b>14-19</b>
<b>3</b>	<b>OILA TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH DASTURI DOIRASIDA BANKLAR TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN ISHLARNING AHAMIYATLI JIHLARI</b>	
	Z.D.Niyozov , A.A.Axrorov	<b>20-24</b>
<b>4</b>	<b>HUDUDIY INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH</b>	
	Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Ergasheva Aziza Xasan qizi	<b>25-34</b>
<b>5</b>	<b>DESTINATION MANAGEMENT AND BRANDING: CREATING COMPETITIVE ADVANTAGE IN GLOBAL TOURISM</b>	
	Nasimov Dilmurod Abdullayeich, Sirojiddinova Shahrizoda	<b>35-42</b>
<b>6</b>	<b>TA'LIM MUASSASALARIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAMOIYILLARI</b>	
	Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	<b>43-47</b>
<b>7</b>	<b>SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH VA BASHORATLASH ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQUISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI</b>	
	Bekmurodov Ulug'bek Bahrom o'g'li, Shomirzayev Farruh Akram o'g'li	<b>48-55</b>
<b>8</b>	<b>SAMARQAND VILOYATIDA INVESTITSION-QURILISH JARAYONLARI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI</b>	
	Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	<b>56-61</b>
<b>9</b>	<b>TURISTIK XIZMATLAR VUJUDGA KELISHINING XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI</b>	
	Umirzoqova Muxabbat Ismatjon qizi	<b>62-67</b>
<b>10</b>	<b>TURAR-JOY KO'CHMAS MULK OBYEKTLARINI BAHOLASH XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARINI TAHLILI</b>	
	A.S.Suyunov, B.M.Abduraimov, B.A.Suyunov	<b>68-73</b>
<b>11</b>	<b>BANK XIZMATLARIDA AN'ANAVIY XIZMATDAN RAQAMLI XIZMATGA O'TISHNING AHAMIYATLI JIHLARI</b>	
	Niyozov Zuxur Davronovich, Bektemirov Bunyodjon Mamasaliyevich	<b>74-78</b>
<b>12</b>	<b>O'ZBEKISTONDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK</b>	
	Rahmonov Rasul Ne'matovich	<b>79-83</b>
<b>13</b>	<b>POTENTIAL AND POSSIBILITIES OF UTILISATION OF CULTURAL HERITAGE FOR TOURISM DEVELOPMENT IN SAMARKAND</b>	
	Mukhsin Khidirov, Umida Shodieva	<b>84-88</b>
<b>14</b>	<b>O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI RAG'BATLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING O'RNI</b>	
	Abdurahmonov Azizbek Akram o'g'li	<b>89-96</b>
<b>15</b>	<b>IoT (INTERNET OF THINGS) XAVFSIZLIK MUAMMOLARINI BARTARAF ETISH USULLARI</b>	
	Bekmurodov Ulug'bek Bahrom o'g'li , Ruziyeva Zulfiya Qurvonovna	<b>97-103</b>